

QARSHI DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
Ilmiy-texnik Kengashining № 2 -sonli qaroridan
KO'CHIRMA

"26" 06 2025 yil

Qarshi shahri

KUN TARTIBI:

Monografiyalarni nashrga tavsiya etish to'g'risida

Tinglandi: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor G'.N.Uzoqov Kengash a'zolariga Qarshi davlat texnika universiteti "Innovatsion iqtisodiyot" kafedrasida dotsenti, i.f.f.d. (PhD) Samiyeva Gulnoza Toxirovna va 70410108 – "Mintaqaviy iqtisodiyot" mutaxassisligi 1-kurs magistranti Eshmurodova Shaxnoza Shaxridinovna tomonidan tayyorlangan "Kayzen" kontsepsiyasi: tadbirkorlik va boshqaruvda muvaffaqiyat kaliti" nomli monografiya yuzasidan ma'lumot berdi.

"Monografiya dolzarb vazifaga bag'ishlangan bo'lib, jami 76 betdan iborat. Mazkur monografiya mintaqada "Kayzen" konsepsiyasi asosida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini chuqur tahlil qilish, innovatsion iqtisodiyot sharoitida daromadlarni oshirish va aholi farovonligini ta'minlash bo'yicha amal qilish qonuniyatlari, huquqiy-me'yoriy hujjatlarni o'rgangan holda takomillashtirish vazifalarini hal qilish masalalariga bag'ishlangan. Monografiya tadqiqot natijalari bo'yicha tayyorlangan ilmiy-amaliy tavsiyalar mintaqada "Kayzen" konsepsiyasi asosida tadbirkorlikni rivojlantirishning iqtisodiy ko'rsatkichlar tahlili asosida daromadini oshirish va istiqbolini belgilash bo'yicha amaliy tavsiyalar aks ettirilgan.

Monografiya "Innovatsion iqtisodiyot" kafedrasida (№ 06, "19" 06 2025 yil) va "Iqtisodiyot" fakulteti Kengashida (№ 01, "20" 06 2025 yil) atroflicha muhokama qilingan.

Monografiyaga ilmiy muharrir - QarDTU "Innovatsion iqtisodiyot" kafedrasida professori, i.f.d R.X.Ergashevning xulosasi va taqrizchilar – i.f.d., prof. S.N.Xamrayeva, QarDU dotsenti, i.f.n. G.P.Erkayevalar tomonidan ijobiy taqrizlar berilgan.

Qaror qilindi:

1. Qarshi davlat texnika universiteti "Innovatsion iqtisodiyot" kafedrasida dotsenti, i.f.f.d. (PhD) Samiyeva Gulnoza Toxirovna va 70410108 – "Mintaqaviy iqtisodiyot" mutaxassisligi 1-kurs magistranti Eshmurodova Shaxnoza Shaxridinovna tomonidan tayyorlangan "Kayzen" kontsepsiyasi: tadbirkorlik va boshqaruvda muvaffaqiyat kaliti" nomli monografiya ma'qullansin va ko'p nusxada chop etishga tavsiya etilsin.

Kengash raisi:

Ilmiy kotib:



G'.N.Uzoqov

M.Raxmatov

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**SAMIYEVA GULNOZA TOXIROVNA
ESHMURODOVA SHAXNOZA SHAXRIDINOVNA**

**“KAYZEN”KONTSEPTSIYASI:
TADBIRKORLIK VA
BOSHQARUVDA MUVAFFAQIYAT
KALITI**

Monografiya

**QARSHI
«ILM-FAN -MA'NAVIYAT» NASHRIYOTI
2025**

G. T. Samiyeva, Sh.Sh. Eshmurodova

KAYZEN KONTSEPTSIYASI

tadbirkorlik va boshqaruvda
muvaffaqiyat kaliti



UO'K 65.012.4

S 28

G.T.Samiyeva, Sh.Sh.Eshmurodova.

“Kayzen” kontsepsiyasi: tadbirkorlik va boshqaruvda muvaffaqiyat kaliti. Monografiya.

-Qarshi. «ILM-FAN -MA'NAVIYAT» nashriyoti, 2025. –95 bet.

Mazkur monografiya mintaqada “Kayzen” kontsepsiya asosida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini chuqur tahlil qilish, innovatsion iqtisodiyot sharoitida daromadlarni oshirish va aholi farovonligini ta'minlash bo'yicha amal qilish qonuniyatlari, huquqiy me'yoriy hujjatlarni o'rgangan holda takomillashtirish vazifalarini hal qilish masalalariga bag'ishlangan. Monografiya tadqiqot natijalari bo'yicha tayyorlangan ilmiy-amaliy tavsiyalar mintaqada “Kayzen” kontsepsiya asosida tadbirkorlikni rivojlantirishning iqtisodiy ko'rsatkichlar tahlil asosida daromadini oshirish va istiqbolini belgilash bo'yicha amal tavsiyalar aks ettirilgan.

Mazkur monografiya tadqiqotchilar, magistrantlar va sohaga qiziquvchi keng kitobxonlarga foydalanish uchun mo'ljallangan.

Ilmiy muharrir:

R.X.Ergashev – iqtisod fanlari doktori, professor.

Taqrizchilar:

S.N.Xamrayeva – Qarshi davlat texnika universiteti “Innovatsion iqtisodiyot” kafedrasini mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

G.P.Erkayeva – Qarshi davlat universiteti “Iqtisodiyot” kafedrasini dotsenti, iqtisodiyot fanlari nomzodi.

Monografiya Qarshi davlat texnika universiteti Ilmiy-texnik kengashining 2025 yil 26-iyundagi 2-son yig'ilish qarori bilan chop etishga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9910-552-45-8

© G.T.Samiyeva, Sh.Sh.Eshmurodova, 2025 y

© «ILM-FAN -MA'NAVIYAT», 2025 y

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasida O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini yanada rivojlantirish borasida to'xtalib "... bizning yaqin istiqboldagi eng muhim vazifamiz boshlagan ishlarimizni izchil davom ettirish – iste'mol talabini kengaytirish maqsadida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish"¹, - deb ta'kidlab o'tdilar.

O'zbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda 2025 yil uchun qo'yilgan vazifalar qatorida "uning iqtisodiyotdagi ulushini 55 foizga ko'tarib, 70 milliard dollarlik qo'shilgan qiymat yaratish; yangi bozorlarga kirib borishda transport, sertifikat va standart masalalariga ko'maklashib, kichik biznes eksportini 2024 yildagi 9 milliarddan 12 milliard dollarga olib chiqish; ichimlik suvi, kanalizatsiya, yo'l, qurilish, kommunal xo'jalik, yetkazib berish, utilizatsiya, migratsiya, madaniyat va ijtimoiy xizmatlarda kichik biznes ulushini 2-3 marta oshirish; 1,5 million doimiy ish o'rni tashkil qilib, sohada band aholi ulushini 75 foizga yetkazish; 100 nafardan ko'p ishchisi bor korxonalarini 4 mingtaga olib chiqish; kichik biznesda yangi 100 ta brend mahsulot chiqarishni yo'lga qo'yish; kichik biznes ishtirokida 200 ta startap loyihalarni moliyalashtirish"² kabilar mavzuning dolzarbligini belgilaydi. Zero, "Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash – bu bizning strategik yo'limiz, tadbirkorlik qancha tez rivojlansa, mamlakatimiz shuncha qudratli bo'ladi, xalqimiz shuncha farovon yashaydi"³.

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi, 2020 yil 24 yanvar

²O'z R Prezidentining kichik va o'rta biznes vakillari bilan sohaning iqtisodiyotdagi o'rnini oshirish va rivojlanishini yangi bosqichga olib chiqish masalalariga bag'ishlangan uchrashuvidagi nutqidan, 2025 yil 19 mart

³O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi, 2020 yil 29 dekabr